



INVERSION VA IMPLITSIT O'QITISH: TALABALARDA TIL SEZGISINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK OMILLARI

Azadov Azizbek Rustambekovich

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Email: azadov224@gmail.com

Tel: +998 97 791 66-36

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida implitsit (yashirin) o'qitish usuli orqali til sezgisini (*linguistic intuition*) rivojlantirishning metodik omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda ingliz tili sintaksisining murakkab tuzilmalaridan biri bo'lgan *inversion* (so'z tartibining teskari o'zgarishi) konstruksiyalari misolida an'anaviy eksplitsit metodlarning cheklanganligi ko'rsatib berilgan hamda implitsit kompetensiyani shakllantirishning konseptual modeli taklif etilgan. Shuningdek, korpus tilshunosligi (DDL), matnni vizual boyitish (*textual enhancement*), axborot oqimini oshirish (*input flood*) hamda emotsional-kontekstli topshiriqlar kabi metodik omillarning talabalarda prosedural xotira va avtomatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: implitsit o'qitish, til sezgisi, inversion, eksplitsit metod, yashirin bilim

Zamonaviy tilshunoslik va metodikada chet tilini o'rgatishning an'anaviy, eksplitsit (ochiq-oydin grammatik qoidalarni yodlatish) usullaridan implitsit (yashirin, intuitiv holatda o'zlashtiriladigan) yondashuvlarga o'tish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida faqatgina grammatik qoidalarni bilish (yoki yoddan aytib berish) emas, balki tilni intuitiv darajada to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini —





ya'ni til sezgisini (linguistic intuition) shakllantirish birlamchi vazifalardan biridir.

Ingliz tili sintaksisida Inversion (gapda so'z tartibining teskari o'zgarishi: egadan oldin yordamchi fe'l yoki kesimning kelishi) konstruksiyalari eksplitsit usulda o'rgatilganda, talabalar tomonidan ko'pincha qoida sifatida tushuniladi, lekin erkin va tabiiy nutqda to'g'ri qo'llanilmaydi. Ushbu tezisda inversion strukturasi misolida implitsit o'qitish metodikasi hamda talabalarda til sezgisini rivojlantirishning asosiy metodik omillari atroflicha tahlil qilinadi.

Implitsit o'rganish (implicit learning) — bu o'quvchi tomonidan qoidalarni ongli ravishda tahlil qilmagan holda, til namunalari va kontekst bilan uzluksiz aloqa natijasida til konstruksiyalarini intuitiv o'zlashtirish jarayonidir. Til sezgisi (Linguistic Intuition) — so'zlovchining muayyan ibora yoki sintaktik qurilmaning "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" ekanligini grammatika qoidalarini eslamasdan turib, ichki sezgi orqali darhol anglab yetish qobiliyatidir.


Implitsit kompetensiyaning shakllanishi uchun quyidagi uchta nazariy komponent zarur:

- *Implicit Knowledge* (Yashirin bilim): Qoidalarni aytib bera olmaslik, lekin u bilan to'g'ri gap tuzish.
- *Procedural Memory* (Prosedural xotira): Til ko'nikmalarining avtomatlashuvi (masalan, velosiped haydash kabi avtomatik faoliyat).
- *Implicit Attentional Bias* (Yashirin e'tibor qaratish): Sintaktik shakllarga ongsiz ravishda moslashish.

Inversion — ingliz tilida ekspressivlik, emotsionallik va stilistik mantiqni ta'minlovchi murakkab sintaktik hodisadir. Masalan:

Standard: *I had hardly entered the room when the phone rang.*

Inversion: *Hardly had I entered the room when the phone rang.*



Rasm 1. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida implitsit til kompetensiyasini shakllantirishning konseptual modeli

Talabalarga grammatik qoidani tushuntirish o'rniga, ingliz tili korpuslaridan (masalan, COCA yoki BNC) olingan real matn parchalari va konkordans ro'yxatlari taqdim etiladi. Talabalar ushbu andozalarni ko'p marotaba kuzatish orqali so'zlar tartibidagi o'zgarishni ongli tahlilsiz, ko'rish va eshitish xotirasi orqali o'zlashtiradilar.

O'qish materiallarida inversion qo'llangan o'rinlar quyuq, qiya yoki boshqa rangda ajratib ko'rsatiladi. O'qituvchi qoidaga to'xtalmaydi, lekin talabaning e'tibori vizual ravishda strukturaga tortiladi (R. Schmidt'ning Noticing Hypothesis nazariyasiga asoslanadi).

Muayyan audio yoki yozma matn tarkibida inversion konstruksiyalarining zichligi sun'iy ravishda oshiriladi. O'quvchi matn mazmuniga diqqat qaratgan holda, takrorlanuvchi strukturani miyasida avtomatik ravishda kodlaydi.

Grammatik mashqlar o'rniga Rolli o'yinlar, Emotsional dramatik nutqlar va Badiiy insholar topshirig'i beriladi. Talaba o'z nutqida kuchli taassurot qoldirish uchun inversiondan intuitiv foydalana boshlaydi.



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida implitsit til kompetensiyasi va til sezgisini rivojlantirish – bu shunchaki o'qitish usulini o'zgartirish emas, balki bo'lajak mutaxassisning tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirishdir.

1. Grammatik qoidalarni berish vaqtini ortga surish: Dastlab talabaga ko'p marotaba to'g'ri kontekstual misollar berilishi va til sezgisi shakllantirilishi lozim.

2. Autentik materiallardan keng foydalanish: Siyosiy nutqlar, badiiy asarlar va debatlar inversionning natural qo'llanishini ko'rsatuvchi eng yaxshi vositalardir.

3. Baholash mezonlarini o'zgartirish: Talabaning bilimi qoidani so'zlab berishiga emas, balki spontan nutqda va yozma ishlarda til tuzilmalarini intuitiv to'g'ri tanlay olishiga qarab baholanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ellis, R. (2009). Implicit and Explicit Knowledge in Second Language Learning, Testing and Teaching. Multilingual Matters.

2. Schmidt, R. (1990). The role of consciousness in second language learning. Applied Linguistics, 11(2), 129-158.

3. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.

4. Hulstijn, J. H. (2005). Theoretical and empirical issues in the study of implicit and explicit second-language learning. Studies in Second Language Acquisition, 27(2), 129-140.